

JAZO TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TIZIMI

Umaraliev Dilshodaxon Nabijonovna

IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o‘qituvchisi

Davlatalieva Nurziyo Tohirjon qizi

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya. Maqolada, O‘zbekiston Respublikasida jinoiy jazo tushunchasi, mohiyati, jazo tizimi, jazolash maqsadi va jazo haqidagi olimlarning fikrlari, jazoning ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarning alohida ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jazo, jazolash, jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyat, jazo tizimi, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, ahloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash.

Аннотация. В статье рассматриваются концепция, сущность, система наказания, цель наказания и взгляды ученых на наказание в Республике Узбекистан, особое значение наказаний, не связанных с лишением свободы.

Ключевые слова: наказание, наказание, борьба с преступностью, преступление, система наказания, наказания, не связанные с лишением свободы, лишение определенных прав, принудительные общественные работы, исправительные работы, ограничение свободы.

Abstract. This article examines the concept, nature, and system of punishment, the purpose of punishment, and scholarly views on punishment in the Republic of Uzbekistan, as well as the special significance of non-custodial punishments.

Keywords: punishment, penalty, crime control, crime, punishment system, non-custodial punishments, deprivation of certain rights, forced community service, correctional labor, restriction of liberty.

Mamlakatimizda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar negizida, xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ustuvor yo‘nalish etib belgilangan. Bu esa, jamiyatda jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni samarali amalga oshirishni ta‘qazo etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash asosan ikki yo‘nalishda – aholini ijtimoiy ta‘minlash orqali amalga oshirish ya‘ni aholini moddiy, madaniy, ma‘naviy turmushini rivojlantirib borish hamda huquqiy choralarni qo‘llash orqali olib boriladi. Huquqiy choralardan eng muhimi jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan jazo choralarini qo‘llash hisoblanadi.

Jazolash deganda, insonning ahloqqa zid xulqi oqibatida, unga javoban biron bir chorani qo‘llash tushuniladi. Jazolashdan maqsad shaxsni tegishli xulq-atvorga undashdan iborat.

Jazo – bu jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud xukmi bilan qo‘llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklaridan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jazo mahkumni ahloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi¹³².

Jazo – tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan, professor M.X.Rustambaev o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhida, jazo – bu jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning etakchi shakli sifatida, davlat tomonidan, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan, shaxsning muayyan huquq va erkinliklarini cheklash orqali majburlov chora sifatida qo‘llanilishi va uning bir nechta shartlari mavjudligini ta’kidlagan. Ya’ni, jinoiy jazo - davlatning majburlov chorasi ekanligi, jazo qo‘llanilayotgan shaxsning ixtiyoridan qat’iy nazar, davlat nomidan faqat jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan xukm yoki ajrim chiqarilishi orqali tayinlanishi, jazo tayinlash uchun jinoiy qilmish sodir etilganligi va aybdor deb topilganligi, faqat jinoyat qonunida ko‘rsatilgan huquq va erkinliklarini cheklashda ifodalanishini aytib o‘tgan.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 42-moddasida, “jazo bu jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud xukmi bilan qo‘llaniladigan”-deb belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-moddasida “jazoni ijro etish uchun sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi yoki qarori, shuningdek amnistiya yoki avf akti asos bo‘ladi”-deb belgilab qo‘yilgan.

Jazo – bu jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri hisoblanib, u jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning etakchi shakli. Aynan jinoyatlarning jazolanishi jinoyat qonunini ijtimoiy aloqalarga ta’sir ko‘rsatuvchi vosita qiladi va huquqiy normalarni shaxs, jamiyat va davlatni noqonuniy tajavvuzlardan himoya etuvchi haqiqiy mexanizmga aylantiradi¹³³.

Jazoning samaradorligi, jazo turining belgilanishi va jinoyat sodir etgan shaxsga ta’sir o‘tkazish usul va metodlariga bog‘liqdir.

Jinoiy jazo va uning samaradorligini tadqiq qilgan barcha kriminalist olimlar “jinoyatchilikka qarshi kurashda, jazoning og‘irligi yoki qattiqligi emas, sodir etilgan har bitta jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligidir”- deb ta’kidlaganlar.

¹³² O‘zbekiston Respublikasi JKning 42-moddasi

¹³³ Tadjibaeva D.A.,//Ichki ishlar organlari jazoni ijro etish xizmati faoliyatini tashkil etish: O‘quv qo‘llanma//–T., 2020.-B.135

Shuni ham ta’kidlash lozimki, mahkumlarning huquqiy holati jazoni ijro etishda vujudga keladigan jazoning turi, maqsadi va mahkumning xulqi bilan bog‘liq bo‘lgan, asosiy fuqarolik maxsus huquq va majburiyatlar yig‘indisidan kelib chiqadi.

Jinoiy jazo muayyan sifat va miqdor hususiyatiga ega bo‘lgan ta’sir ko‘rsatish usuli bo‘lib, sifat belgisi sifatida jinoiy jazo chorasi orqali ta’sir etishning mazmuniy jihati tushuniladi¹³⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasida jazo tizimi berilgan bo‘lib, ularning nisbiy og‘irligini inobatga olgan holda, engilidan og‘iriga qarab qat’iy belgilangan tartibda joylashtirilgan.

Jazo tizimi ro‘yxatida jazo turlari batafsil keltirib o‘tilgan bo‘lib;

a) jarima;

b) muayyan huquqdan mahrum qilish;

b¹) majburiy jamoat ishlari;

v) ahloq tuzatish ishlari;

g) xizmat bo‘yicha cheklash;

d¹) ozodlikni cheklash;

ye) intizomiy qismga jo‘natish;

j) ozodlikdan mahrum qilish;

z) umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolaridan iborat.

Jazo turi sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasi inobatga olingan xolda, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar qo‘llanilishi mumkin. Ushbu jazo turlari esa, jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, ahloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, ozodlikni cheklash tariqasidagi jazolarni tashkil etadi. Ushbu jazolardan muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ham asosiy ham qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanilishi mumkin. Qolgan barcha jazolar asosiy jazo sifatida qo‘llaniladi.

Jahon amaliyoti jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratib qo‘yish, qamoqxonada saqlash bilan uni to‘g‘ri yo‘lga qaytarib bo‘lmashligini ko‘rsatib bergan bo‘lsa, bu borada olimlarimiz ham bir nechta fikr bildirganlar. Jumladan, “Ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoning boshqa jazo turlariga qaraganda ko‘proq qo‘llanilishi bir tomondan, jazoni ijro etish muassasalarining to‘lib ketishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, salbiy

¹³⁴ Rustambaev M.X.,// O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodesiga sharhlar. Umumiy qism//–T., 2021.-B.411

oqibatlarini keltirib chiqaradi”¹³⁵-deb, “jinoyatchilikka qarshi kurash ishida faqat qattiq jazo choralari orqali ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmashligini”¹³⁶-deb ta’kidlagan.

Hozirgi kunga kelib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jazo turi qo‘llashning, nafaqat jazo tayinlangan shaxsga balki, jamiyat uchun salbiy oqibatlari ham namoyon bo‘lib kelmoqda.

Shu bois jinoyat sodir etgan shaxs yoki jinoyat sodir etishga moyilligi bo‘lganlarni jazolash masalasiga yangi, oqilona echim topish zarurati yuzaga keldi. Tajriba va o‘rganishlar bunday insonlarni oila a‘zolari, yaqinlari, keng jamoatchilik orasida bo‘lishi ijobiy natija berishi isbotlandi¹³⁷. Ayniqsa shaxsning oilasidan uzoqlashmagan holda jazoni o‘tashi, oilaning mohiyatiga ko‘ra, o‘zining turli, odatiy tarbiyaviy qoidalari, majburiyatlari, ishontirish va jazo tizimi mavjud ekanligi, shaxsga yaqin qarindoshlarining ijobiy ta’siri bilan ham shaxsni ahloqan tarbiyalashda ijobiy ta’sir etadi.

Jazoni ijro etish tizimini shartli ravishda ikkiga ajratgan holda tahlil qilar ekanmiz;

- Ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lgan jazolarni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyati;

- Ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyati.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 14-moddasida, “muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, ahloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ichki ishlar organlari tomonidan yoki sud belgilaydigan boshqa organ tomonidan ijro etiladi”-deb noaniq ko‘rsatilganligini, aynan qaysi jazo turlari qaysi davlat organi tomonidan ijro etilishi aniq ko‘rsatilmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi maxsus qismining 2 va 3-bo‘limlarida jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, ahloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash tariqasidagi jazolarni ijro etishni moddalar asosida tartibga solingan.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining aynan 14-moddasida, jinoiy jazolar ikki turga bo‘lingan ya’ni, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lgan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar sifatida talqin qilinib,

¹³⁵ Rustambayev M.X.,// O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism//–T., 2006.-B.265

¹³⁶ Usmonaliev M., Ermatov G‘.,// Shartli xukm tushunchasi, mohiyati va ahamiyati //–T., 2005.-B.4-5

¹³⁷Abdulxamidov A.A., //Jinoyat sodir etgan shaxsga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlamay, jazolash tizimi// O‘z.R.IV Akademiyasi axborotnomasi. –T., 2021y.-№4.-B 127.

bevosita har qaysi jazo turi bo'yicha qaysi davlat ijro organi zimmasiga yuklatilishi aniq ko'rsatilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 30.04.2023 – Toshkent
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent.
<https://www.lex.uz/acts/111453>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/163629>
4. Rustambaev M.X., // O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism//–T., 2006.-B.265
5. Usmonaliev M., Ermatov G'., // Shartli xukm tushunchasi, mohiyati va ahamiyati //–T., 2005.-B.4-5
6. Abdulxamidov A.A., //Jinoyat sodir etgan shaxsga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlamay, jazolash tizimi// O'z.R.IIV Akademiyasi axborotnomasi. –T., 2021y.-№4.-B 127.
7. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik/I.Ismailov, Q.R. Abdurasulova, A.A. Shodiev, Z.Q. Jabbarov, D.M. Usmonov va boshqalar. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021.
8. Tadjibaeva D.A.,//Ichki ishlar organlari jazoni ijro etish xizmati faoliyatini tashkil etish: O'quv qo'llanma//–T., 2020.-
9. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Probatsiya to'g'risida”, O'RQ – 938, 07.08.2024-yil <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>